

Abdullayev Muzrobjon G'ulomovich,
tarix fanlari doktori, professor;
Andijon davlat universiteti
E-mail: muzrobjon@list.ru

O'ZBEKISTONDA SURGUN QILINGAN "QULOQ" XO'JALIKLARI MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish jarayonida respublikaning chekka hududlariga surgun qilingan "quloq" xo'jaliklarini uyushtirish va qishloq xo'jaligidagi mehnat faoliyatini tashkil etish masalalari tahlil etilgan. 1930-1931-yillarda O'zbekiston SSRda tashkil etilgan 17 ta "quloq posyolkasi"ning dislokatsiyasi va ulardagi oilalar, kishilar soni, surgun qilinganlarning mehnat faoliyati bo'yicha ma'lumotlar umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: kollektivlashtirish, quloq qilish, quloqlar surguni, quloq posyolkalari, OGPU, komendatura nazorati, mehnat normasi, paxtachilik.

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСЛАННЫХ КУЛАЦКИХ ХОЗЯЙСТВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье анализируются вопросы организации кулацких хозяйств, сосланных в отдаленные районы республики в процессе сплошной коллективизации сельского хозяйства и организации трудовой деятельности в сельском хозяйстве Узбекистана. Обобщены сведения о дислокации 17 «кулацких посёлков» созданных в Узбекской ССР в 1930-1931 гг., о количестве семей и человек, трудовой деятельности высланных хозяйств.

Ключевые слова: коллективизация, раскулачивание, кулацкая ссылка, кулацкие посёлки, ОГПУ, комендантский надзор, норма труда, хлопководство.

ISSUES OF THE ORGANIZATION OF LABOR ACTIVITIES OF EXPIRED KULAK HOUSES IN UZBEKISTAN

Abstract

The article analyzes the issues of organizing kulak farms exiled to remote regions of the republic in the process of continuous collectivization of agriculture and the organization of labor activity in agriculture in Uzbekistan. Summarized information about the deployment of 17 "kulak settlements" created in the Uzbek SSR in 1930-1931, the number of families and people, the labor activity of the deported farms.

Key words: collectivization, dispossession, kulak exile, kulak settlements, OGPU, commandant supervision, labor standards, cotton growing.

Kirish

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini yoppasiga kollektivlashtirish jarayonida yashab turgan joyidan surgun qilinishi lozim bo‘lgan “quloq”larning asosiy qismini oila a‘zolari bilan surgun qilinadigan 2-toifadagi quloq xo‘jaliklari tashkil etdi. Ularga 1-toifa bo‘yicha jazoga tortilganlarning oila a‘zolari ham qo‘shilgan. Bu oilalar qayerga surgun qilinishi, qayerda va qanday sharoitda joylashtirilishi kabi amaliy masalalar yuqori partiya-sovet organlari qaror va ko‘rsatmalarida aniq ko‘rsatilmagan edi. Ittifoq bo‘yicha quloq oilalari surgun qilinishi lozim bo‘lgan joylarda ular uchun hech qanday sharoit yaratilmagan edi. Ayniqsa, 1930-yilda surgun qilingan oilalarni turar joy, oziq-ovqat bilan ta‘minlash nihoyatda qoniqarsiz bo‘ldi, oqibatda surgunning dastlabki oylaridanoq ko‘chirilganlar orasida ochlik yuzaga kelgan, turli epidemik kasalliklar tarqalgan, yashash sharoitlarining og‘irligidan o‘lim darajasi, ayniqsa bolalar va keksalar o‘limi keskin oshib ketgan [1, C.599-600].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu maqolani tayyorlashda qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish va badavlat xo‘jaliklarni “quloq qilish” masalasiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar va arxiv hujjatlari to‘plamlaridan foydalanildi. Umuman, bu mavzuga aloqador ilmiy adabiyotlarni ikki guruhga ajratib tahlil etish mumkin. Birinchi guruh sovet hokimiyati yillarida yaratilgan adabiyotlar bo‘lib, ularda o‘rganilgan masala sovet mafkurasi bilan sug‘orilgan, kollektivlashtirish, quloq oilalarini surgun qilish tamoman ijobiy jarayon sifatida, “sotsialistik tuzumning g‘alabasi” sifatida baholangan.

Ikkinchi guruhga mansub adabiyotlarni “qayta qurish” yillarida va mustaqilik yillarida O‘zbekistonda va boshqa MDH mamlakatlarida yaratilgan mavzuga doir ilmiy asarlar tashkil qiladi. Bu asarlarda ko‘rilgan masala tanqidiy nuqtai nazardan tahlil etilgan, sovetlar tomonidan amalga oshirilgan majburiy kollektivlashtirish va quloq qilishning barcha fojiali ko‘rinishlari, og‘ir oqibatlari aniq faktik dalillar bilan ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda obyektivlik, dialektika va determinizm, nazariy ko‘rsatmalar ilmiyligi tamoyillaridan va tarixiy statistika, qiyosiy tahlil metodlari asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonning chekka hududlariga surgun qilingan “quloq” oilalarini joylashtirish va mehnatini tashkil etish masalalarini mahalliy qishloq xo‘jalik tashkilotlari (asosan, paxtachilik sovxozlari) o‘z zimmasiga olishi lozim edi. Chunki, xo‘jalik tashkilotlari bunday arzon ishchi kuchidan manfaat ko‘rishi shubhasiz edi. Ikkinchi bir tomondan, surgun qilingan quloq oilalari bo‘yicha OGPU organlarining mas‘uliyati ko‘chirilganlar surgun joyiga yetib kelishi bilanoq tugagan edi. OGPUning joylardagi muxtor vakilliklari maxsus ko‘chirilganlar bo‘yicha faqat nazorat nuqtai nazaridan (qochishlarning oldini olish, ommaviy chiqishlar va noroziliklarni bartaraf etish) shug‘ullanar edi.

1930-yildagi “quloqlar surguni” asosan RSFSR hududlarida amalga oshirilgani bois, surgundagilarni xo‘jalik jihatdan uyushtirishga doir meyoriy hujjatlar dastavval RSFSR hukumati tomonidan ishlab chiqilgan.

1930-yil 1-aprelda RSFSR Yer ishlari xalq komissarligi “Kollektivlashtirish rayonlaridan surgun qilingan quloq xo‘jaliklari manzilgohlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi [2, C.382-383]. Qarorga ko‘ra surgun qilingan xo‘jaliklardan 20-100 oiladan iborat maxsus posyolkalar tashkil etish tavsiya qilindi. Posyolkalar yoppasiga kollektivlashtirish rayonlaridan tashqarida, chegara chiziqlaridan hamda temir yo‘llardan uzoq masofada tashkil qilinishi lozim edi. Qarorda ko‘chirilganlarga “sifati yomon bo‘lgan yerlarni ajratish” ta‘kidlangan bo‘lib, alohida tayinlanadigan ma‘muriy shaxs (komendant) rahbarligida nizomsiz posyolka artellarini tashkil etish ham mumkin edi. Posyolkalar tashkil etiladigan joylar, yer uchastkalari miqdori, posyolka ma‘muriyatini tayinlash kabi masalalar yer ishlari boshqarmasi, OGPU va oblast (o‘lka) ijroqo‘mlari vakillaridan tuzilgan komissiya tomonidan hal qilinishi belgilangan [2, C.383].

VKP(b) Markaziy Komiteti O‘rta Osiyo byurosining 1930-yil 28-yanvardagi “Quloqlarni sinf sifatida tugatishga aloqador tadbirlar haqida”gi qarorida 3-toifa bo‘yicha ko‘chirilgan quloq oilalariga “yoppasiga kollektivlashtirilayotgan rayondan tashqaridagi lalmi yerlardan yoki sug‘oriladigan unumsiz yerlardan mehnat normasi miqdorida yer ajratib berish va joriy yil uchun paxta yetishtirish majburiyatini yuklash” qayd qilib o‘tilgan edi [3, C.311-313]. O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK) va Xalq Komissarlari Soveti (XKS)ning 1930-yil 15-martdagi yo‘riqnomasida 1-toifadagi “boy quloqlar va yarim pomeschiklar” OGPUning maxsus tartibiga binoan respublikadan tashqariga, ikkinchi va uchinchi toifadagi quloq xo‘jaliklari esa yashab turgan rayon yoki okrug hududidan tashqariga surgun qilinishi belgilangan [4, B.53-54].

Yo‘riqnomaga binoan, ikkinchi va uchinchi toifa bo‘yicha surgun qilinadigan quloq xo‘jaliklari ro‘yxati Yer ishlari xalq komissarligiga berilgan. Bu komissarlikning maxsus bo‘limi quloq oilalari surgun qilinadigan joylarni belgilab, surgun qilish va joylashtirish ishlarini amalga oshirgan. 1930-yil-martida O‘zSSR Yer ishlari xalq komissarligi ikkinchi va uchinchi toifa bo‘yicha surgun qilinadigan quloq xo‘jaliklari joylashtiriladigan asosiy hududlar sifatida Bulung‘ur, Parkent rayonlarining lalmikor yerlarini, Jilvon dashti va Qoraqalpog‘istonning cho‘l hududlari sug‘oriladigan qismlarini tanlagan [4, B.54].

1931-yil-iyunigacha surgun qilingan quloq oilalarini joylashtirish, xo‘jalik jihatdan uyushtirish ishlari bilan mahalliy ijroqo‘mlar shug‘ullandi. Ular o‘z komendantlik organlari orqali surgundagilarni boshqardi. Biroq, bu organlar tegishli vazifalarga yetarli e‘tibor qaratmadi. Surgun joylarida zarur sharoitlarning yo‘qligi bois, surgun qilinganlar orasida noroziliklar yuzaga kelgan, ommaviy qochib ketishlar avj olgan. Surgundagilarni tegishli soha bo‘yicha ish bilan ta‘minlash, mehnatni tartibli tashkil etish va mehnatni rag‘batlantirish tadbirlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan. Surgun qilingan oilalar yashash uchun yaroqsiz binolarga, baraklarga, yerto‘lalarga, masjid va omborxonalariga joylashtirilgan. Bir qismi esa chayla va kapalarda yashagan. Xo‘jalik tashkilotlari surgun qilinganlar uchun uy-joylar qurishga deyarli e‘tibor bermaganlar. Baraklarda 200-300 kishining tiqilinch holda yashashi natijasida epidemik kasalliklar avj olgan. Ularga tibbiy yordam ham ko‘rsatilmagan. Ochlik, sovuq va yuqumli kasalliklar tufayli o‘lim ko‘paygan, ayniqsa bolalar o‘limi juda yuqori bo‘lgan [5, B.76].

Surgun qilinganlar orasida madaniy-ma'rifiy ishlar olib borilmagan, bu tadbirlar partiya yo'lini buzish deb hisoblangan. Quloq posyolkalariga gazetalar, ko'chma kino keltirish, quloq farzandlarini umumiy maktablarda o'qitish ta'qiqlangan [6, B.112].

1930-yil 15-martda Buxoro okrugi Shofirkon rayonidagi Jilvon dashtida O'rta Osiyodagi dastlabki quloq posyolkasi tashkil qilingan bo'lib, bu yerga Samarqand okrugi Ikromov rayonidan 250 kishidan iborat 62 quloq xo'jaligi surgun qilingan. Xo'jaliklar bir-biridan ikki kilometr uzoqlikdagi uchta uchastkaga joylashtirilib, har bir guruhlariga alohida yerlar ajratib berilgan. Quloq posyolkasi eng yaqin aholi punktiga 4 kilometr, rayon markaziga esa 8 kilometr masofada bo'lgan [7, C.291].

Posyolkadagi quloq xo'jaliklari o'z holicha tashlab qo'yilgan. Ish hayvonlari va mehnat qurollari yetishmasligi hamda rayon tashkilotining e'tiborsizligi oqibatida surgun qilinganlar uchun ajratilgan 34 gektar yerga ekin ekilmagan. Quloq xo'jaliklarining ko'pchiligi 1931-yil boshlarigacha og'ir ahvolda kun kechirgan, turar joylar yo'qligidan chaylalarda yashaganlar. Rayon ijroqo'mi turar joylar qurishga e'tibor bermagan, surgun joyida qurilish materiallari bo'lmagan. Sharoit og'irligidan posyolkadan qochib ketish avj olgan, 1930-yilning 15-avgustigacha 100 kishi qochib ketgan. Mavjud 55 bosh ish hayvonidan 44 bosh qolgan, xolos. Posyolkada komendant bo'lmagan, posyolkani qo'riqlash Buxoro okrug ma'muriy bo'limi tomonidan ajratilgan 7 kishilik militsiya naryadi tomonidan olib borilgan [7, C.292-293].

1930-1931-yillarda maxsus posyolkalar soni SSSR bo'yicha 2000 tadan ko'proq edi. 1931-yil o'rtalarida O'rta Osiyoda 21 ta quloq posyolkalari bo'lib, undan 17 tasi O'zbekiston SSRda, 2 tasi Turkmaniston SSRda va 2 tasi Qirg'iziston ASSRda edi. O'zbekiston va Turkmaniston hududlaridagi maxsus posyolkalar bu yillarda OGPUning O'rta Osiyodagi muxtor vakilligi qoshidagi Maxsus ko'chirilganlar bo'limiga, Qirg'iziston ASSR maxsus posyolkalari esa OGPUning Qozog'istondagi muxtor vakilligiga bo'ysungan [8, B.22].

1931-yil 1-iyul holatiga O'zbekiston SSRdagi 17 ta "quloq posyolkasi"da 902 quloq xo'jaliklari yoki 2263 kishi bo'lgan, 2263 kishidan faqat 687 nafari mehnatga yaroqlilar bo'lgan.

Qo'qon rayonidagi quloq posyolkalari Qo'qon shahridan 20 km shimolda joylashgan bo'lib, ko'chirilganlar uchun 1500 tanob yer ajratilgan. Posyolkalar 7 ta uchastkaga bo'lingan. "Qora ko'rpa" posyolkasiga kontraktatsiya bo'yicha 432 tanob yerda, "Mayda yulg'un" posyolkasiga esa 508 tanob yerda paxta yetishtirish majburiyati yuklangan. 1931-yilning 1-iyuligacha birinchi posyolkada 178 tanob yerga, ikkinchi posyolkada 237 tanob yerga paxta ekilgan. Lekin, posyolkalarda Qo'qon shahar sovetidan ijaraga olingan 150 ta ketmondan boshqa qishloq xo'jalik asboblari bo'lmagan. Posyolkada 2 ot, 2 xo'kiz va bir nechta eshak bo'lgan, xolos. May oyida mahalliy tashkilotlar tomonidan 7 ta xo'kiz berilgan, shuningdek, bu yerga vaqtincha yuborilgan traktor bilan 72 tanob yer haydalgan. 1931-yil-iyul oyida ikkala posyolkada 6 ta ot, 15 ta xo'kiz, 6 ta sigir, 17 bosh qo'y-echki, 4 ta omoch, 1 ta borona, 150 ta ketmon va 5 ta arava bo'lgan [7, B.303-304].

Posyolkalarda oziq-ovqat zahirasi bo'lmagan, surgundagilar tirikchilik o'tkazish uchun navbati bilan qarindoshlarinikiga qatnaganlar. Shuningdek,

qarindoshlar ham oziq-ovqat olib kelib turganlar. Ayrim quloq xo'jaliklari bozorda o'tin sotib tirikchilik qilgan, boquvchisi yo'q ayollar yaqin qishloqlarga qatnab, turli yumushlarni bajarib kun o'tkazgan. Ikkala posyolkada komendant tomonidan do'kon va chorva hayvonlarini qo'riqlash uchun surgun qilingan quloqlardan qorovul tayinlangan. Posyolka komendantlari kechqurun kolxozga – o'z uyiga ketgan.

Chust-Pop quloq posyolkasi nomiga tashkil qilingan bo'lib, bu yerga quloq xo'jaliklarining faqat bir qismi ko'chirilgan. Ular kolxoz va sovxozlardagi turli ishlarga jalb qilingan. Ularning doimiy turar joylari bo'lmagan, kolxozchilarning uyida yashab turganlar. Oziq-ovqatni bozordan olganlar. Posyolka nazorati tashkil etilmagan [7, B.304-305].

Oqdaryo rayonidagi quloq posyolkasiga 294 gektar to'qayzor yer ajratilgan va u to'rtta uchastkaga bo'lingan. Surgun qilingan quloqlarning hammasi Saydon qishlog'i yaqinidagi uchastkada qamishdan qilingan chaylalarda yashaganlar. Posyolkada turar joy va yordamchi binolar umuman bo'lmagan. Posyolka aholisi oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari bilan ta'minlanmagan. Quloqlar qarindosh-urug'lari berib turgan oziq-ovqatlar bilan tirikchilik o'tkazgan. Posyolkada 5 ta ot, 3 ta buqa, 6 ta eshak, 4 ta omoch, 2 ta mola, 1 ta plug, 1 ta borona, 25 ta ketmon va 3 ta o'roq bo'lgan. Quloqlar tomonidan majburiyat bo'yicha 24 gektar yerga paxta ekilgan [7, B.305].

Ikromov rayonidagi uchta quloq posyolkasi Qoradaryo irmog'i sohilida joylashgan. Surgun qilinganlar qamish chaylalarda yashaganlar, ayrimlar tashlandiq binolarga va masjidlariga joylashgan. Ular ahvolidan hamqishloqlari va qarindoshlari xabar olib turgan. Bu posyolkalar ham oziq-ovqat va sanoat mollari bilan ta'minlanmagan. Surgun qilinganlar yaqin kolxozlarga borib yollanib ishlashni xohlashgan, lekin bunga ruxsat berilmagan. Posyolkalarga 162 gektar sug'oriladigan yer berilib, qat'iy majburiyat yuklangan. Majburiyatni bajarishdan va ishga chiqishdan bosh tortgan 4 kishi qamoqqa olingan. Posyolkalar boshqaruvi yaxshi yo'lga qo'yilmagan, ikkita posyolkaga bitta komendant tayinlangan. Uchchala posyolka bo'yicha surgun qilinganlardan 163 kishi qochib ketgan [7, B.305-306].

G'ijduvon rayonidagi Raynobod posyolkasida 16 ta buqa, 4 ta ot bo'lib, 64 gektar yer ajratilgan. Posyolkada yashash sharoitlarining yo'qligi va qishloq xo'jalik asboblari, ish hayvonlarining yetishmasligi natijasida belgilangan majburiyat faqat 50 foizga bajarilgan. Quloqlar oziq-ovqat bilan ham, sanoat mollari bilan ham ta'minlanmagan. Bu yerdagi quloq oilalari ham qarindoshlari yordamida tirikchilik o'tkazgan. Raynobod posyolkasi qurollangan 6 ta militsioner tomonidan qo'riqlangan.

Bauman (Shofirkon) rayonidagi Jilvon va Ko'loydin quloq posyolkalariga 272 gektar yerda paxta yetishtirish majburiyati yuklangan, lekin 116 gektar yerga chigit ekilgan, xolos. Jilvon posyolkasida yerlarning asosiy qismi qumliklardan iborat bo'lib, dehqonchilikka yaroqsiz edi. Bu posyolkada 11 ta buqa, 3 ta ot, 4 ta eshak va 41 bosh mayda hayvonlar bo'lgan. Ko'loydin posyolkasida esa 22 ta buqa, 4 ta ot, 34 ta eshak, 10 bosh qoramol bo'lgan. Posyolkalarda oziq-ovqat ta'minoti yo'lga qo'yilmagan. Jilvon posyolkasi 7 kishilik militsiya naryadi tomonidan qo'riqlangan, Ko'loydin posyolkasi esa qo'riqlanmagan, surgun qilinganlar avvalgi yashash

joylariga bemalol borib kelganlar [7, B.306-307].

Denov rayonidagi quloq posyolkalarida qishloq xo'jalik asboblari yetishmagan, 109 xo'jalik ixtiyorida 5 ta buqa va 11 ta ot bo'lgan, xolos. Uchchala posyolkada 31 ta mehnatga yaroqli kishi bo'lgan, qolganlari ayollar, qariyalar va bolalar edi. Quloqlar uchun ajratilgan 780 gektar yerning 208 gektariga paxta, 370 gektariga kanop ekilgan, qolgan 196 gektar yer dehqonchilikka yaroqsiz bo'lgan. Posyolkalarning iqtisodiy ahvoli og'ir bo'lgan. Uchta posyolka bo'yicha bitta komendant tayinlangan, qo'riqlash ishlari yo'lga qo'yilmagan.

Yangiyo'l quloq posyolkasiga surgun qilinganlar ixtiyorida 4 ta ot, 3 ta sigir va 27 ta ketmon bo'lgan. 10 ta xo'jalikka qat'iy majburiyat yuklangan, ular tomonidan 13 gektar yerga paxta ekilgan. Posyolkada yashash sharoitlari og'ir bo'lib, zaruriy ta'minot tashkil qilinmagan. Posyolkaga komendant tayinlanmagan, qo'riqlash ishlari ham olib borilmagan [7, B.307].

1931-yil-iyul oyigacha surgun qilingan quloqlarning huquqiy maqomi aniq belgilanmagan. Ular o'zlarini barcha huquqlardan abadiy mahrum deb hisoblaganlar. Bu kayfiyatni ma'muriy-xo'jalik organlari ham kuchaytirgan. Ular quloqlarning butun taqdiri o'z qo'llarida ekanini doimo uqtirib turganlar. Quloqlar mehnatidan samarali foydalanish choralari ko'rilmagan. Buning oqibatida belgilangan normani bajarmaslik, bajarishdan bosh tortish kabi holatlar avj olgan. Eng yomoni, surgun qilinganlarga erkin ishchilarga nisbatan ikki barobar ortiq normalar belgilangan, ish vaqti uzaytirilgan, turli og'ir ishlarda ayollar va bolalar mehnatidan ham foydalanilgan [9, B.556].

Xo'jalik tashkilotlari surgun qilinganlarga ish haqi tayinlash haqida bosh qotirmaganlar. Maxsus ko'chirilganlarga hisob daftarchalari berilmagan, ya'ni, ular ishchi sifatida hisobga olinmagan. Deyarli barcha posyolkalarda quloqlarga bir necha oylab maosh berilmaganligi kuzatilgan, aksariyat hollarda maosh o'rniga oz miqdorda oziq-ovqat ulushlari tarqatilgan. Bu ulush oila ehtiyoji uchun yetmagan. Xo'jalik tashkilotlari tomonidan surgun qilinganlarni aldash hollari ham yuz bergan, ya'ni oilaning ishlamaydigan a'zolari – qariyalar va bolalarga oziq-ovqat ulushlari berilmagan. Xo'jalik boshlig'i o'z ulushining bir qismini oila a'zolariga bergani uchun o'zi ham och qolgan. Surgun qilinganlarni eng zarur mahsulotlar, ayniqsa, kiyim-kechak va poyabzal bilan ta'minlash juda qoniqarsiz bo'lgan. Hatto, ish bilan band bo'lganlar ham yupun kiyimda, yalangoyoq qolgan. Ayrim joylarda maxsus ko'chirilganlar ish haqlaridan 25 foiz o'rniga 27 foizdan chegirma ushlab qolingan [9, C.557].

Quloqlar surgun qilingan qator viloyatlarda ular birlashtirilgan xo'jalik tashkilotlari ma'muriyati va posyolka komendantlari tomonidan quloqlarni kaltaklash va xo'rlash holatlari qayd etilgan. Ayniqsa, komendantlarning o'zboshimchalik bilan surgun qilinganlarni otib tashlashi, ayollarga tazyiq o'tkazishi, ovqat ulushidan mahrum qilishi va besabab qamoqqa olish holatlari yuz bergan.

Posyolkalardagi yashash sharoitlarining og'irligi, maishiy turmushning nochorligi, oziq-ovqat yetishmasligi oqibatida quloqlarning posyolkalardan qochib ketishi ommaviy tus olgan. 1931-yil 15--avgustiga qadar O'rta Osiyodagi quloq posyolkalaridan 240 kishi qochib ketgan, ulardan birortasi ham qaytarib kelinmagan

[9, C.559].

1931-yilda quloqlar surguni keng ko‘lam kasb etgani bois, ularni turar-joy bilan ta‘minlash va maishiy turmushini yo‘lga qo‘yish ishlarini mahalliy organlar hal eta olmas edi. Shu sababli VKP(b) MK Siyosiy byurosining 1931-yil 20-maydagi “Maxsus ko‘chirilganlarni xo‘jalik jihatdan uyushtirish to‘g‘risida” qarori bilan surgun qilingan quloqlarni ma‘muriy, xo‘jalik va tashkiliy jihatdan boshqarish OGPU zimmasiga o‘tkazildi [10, C.216]. Shu tariqa 1931-yil-iyul oyidan e‘tiboran surgun qilingan quloq xo‘jaliklarini joylashtirish, maishiy-xo‘jalik jihatdan uyushtirish va boshqarish muammolari bilan OGPU organlari shug‘ullana boshladi.

VKP(b) MK Siyosiy byurosining 1931-yil 20-may qaroridan keyin OGPUning quloqlar masalasidagi faoliyati ikki yo‘nalishda olib borila boshladi. Birinchi yo‘nalish – OGPU kuzatuv ostida xo‘jalik tashkilotlari kuchi bilan surgun qilinganlarni uyushtirish. Unda surgun qilingan quloq oilalarini qabul qilgan xo‘jalik tashkilotlari bilan OGPU o‘rtasida shartnomalar tuzilib, unga ko‘ra xo‘jalik tashkilotlari quloq oilalarini turar joy, oziq-ovqat ta‘minoti, tibbiy va madaniy xizmat, erkin ishchilar bilan teng asosda haq to‘lash sharti ostida doimiy ish bilan ta‘minlash majburiyatini o‘z zimmasiga olgan. Bu yo‘nalishda OGPU zimmasida asosan, maxsus ko‘chirilganlar joylashtirilgan posyolkalarni boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, xo‘jalik tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarning bajarilishini kuzatib borish bo‘lgan, xolos.

Ikkinchi yo‘nalish – OGPU kuchi bilan surgun qilinganlarni uyushtirish bo‘lib, bunda barcha ishlar asosan OGPU organlari tomonidan amalga oshirilgan. Bu yo‘nalishdagi ishlar asosan, quloq xo‘jaliklari tamoman chekka, kimsasiz hududlarga surgun qilingan joylarda olib borilgan. Tabiiyki, bunday joylarda xo‘jalik tashkilotlari umuman bo‘lmagan. Kimsasiz joylarni o‘zlashtirish, turar joylar qurish, ichimlik suvi va aloqa yo‘llari tarmoqlarini barpo etish va umuman maishiy-xo‘jalik hayotini tashkil etish surgun qilingan quloqlar tomonidan bajarilgan va bu ishlar OGPU organlari tomonidan to‘la nazorat qilingan va boshqarilgan. O‘zlashtirilgan xududlarda barpo etilgan ma‘lum ishlab chiqarish obyektlari (asosan, qimmatbaho ma‘dan konlari) keyinchalik ham OGPU (NKVD) organlari tasarrufida qolgan.

O‘zbekiston SSRda surgun qilingan quloq xo‘jaliklarini maishiy-xo‘jalik jihatdan uyushtirish ishlari asosan, birinchi yo‘nalish bo‘yicha olib borildi. YA‘ni, respublika ichida surgun qilingan quloq xo‘jaliklarining barchasi mehnat qilishi uchun “Sredazsovxozxlopok” tashkiloti tasarrufiga berilgan [11, B.104].

Xulosa

1931-yilning o‘rtalarigacha surgun qilingan quloq xo‘jaliklarini joylashtirish va ularni maishiy-xo‘jalik turmushini tashkil etish xo‘jasizlarcha olib borildi. Bu masalaga mahalliy hokimiyat organlari yetarli e‘tibor qaratmadilar, qolaversa, surgun qilinganlarni joylashtirish va xo‘jalik jihatdan uyushtirish masalalariga qaratilgan markaziy partiya-sovet organlarining aniq ko‘rsatmalari ham yo‘q edi. Shu sababli ham mahalliy hokimiyat organlari bu masalada o‘z bilganlaricha ish tutganlar. Bularning barchasi quloq oilalarining dastlabki yillarda nihoyatda og‘ir ahvolda qolib ketishlariga sabab bo‘ldi. Surgun qilinganlarni joylashtirish, mehnat faoliyatini tashkil etish va ijtimoiy ta‘minot masalalari maxsus posyolkalar

ma'muriy boshqaruvi OGPU zimmasiga o'tkazilganidan keyingina birmuncha tartibli yo'lga qo'yila boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Советская деревня глазами ВЧК-ОГПУ-НКВД. 1918-1939. Документы и материалы. В 4-х томах. / Т.3. 1930-1934 гг. Кн. 1. 1930-1931 гг. /Под ред. А.Береловича, В.Данилова. – Москва: РОССПЭН, 2003. – 864 с.
2. Документы свидетельствуют: из истории деревни накануне и ходе коллективизации. 1927-1932 гг. Сборник документов. / Сост. В.П. Данилов и др. Под ред. В.П.Данилова, Н.А.Ивницкого. – Москва: Политиздат, 1989. – 526 с.
3. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка 1929-1955 гг. Документы и материалы. Том I. / Сост.: проф. Р.Т. Шамсутдинов, к.и.н. Б.М. Расулов. Под ред. проф. Д.А.Алимовой. – Ташкент: Шарк, 2006. – 656 с.
4. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), R.837-fond, 8-ro'xat, 311-ish.
5. Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi (RFDA), R.9479-fond, 1-ro'xat, 89-ish.
6. RFDA, R.9479-fond, 1-ro'xat, 86-ish.
7. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка 1929-1955 гг. Документы и материалы. Том 2 / Сост.: проф. Р.Т. Шамсутдинов, к.и.н. Б.М. Расулов. Под ред. проф. Д.А.Алимовой. – Ташкент: Шарк, 2006. – 496 с.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi (O'zR PAA), 58-fond, 7-ro'xat, 145-ish.
9. История Сталинского ГУЛАГа. Конец 1920-х – первая половина 1950-х годов. Собрание документов в 7-ми томах. / Т.5. Спецпереселенцы в СССР. /Отв. ред. и сост. Т.В.Царевская-Дякина. – Москва: РОССПЭН, 2004. – 824 с.
10. Иванова Г.М. История ГУЛАГа. 1918-1958: социально-экономические и политико-правовой аспекты. – Москва: Наука, 2006. – 438 с.
11. O'z MA, R.121-fond, 1-ro'xat, 12-ish.